

MAYDA SHOXLI HAYVONLARNING MONIEZIOZIDA ANTGELMINTIKLARNI SAMARADORLIGI ANIQLASH

Usmanov I.G‘.

Magistr

Taylakov T.I.

Ilmiy rahbar

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mayda shoxli hayvonlarda xo‘jalik va aholidagi qo‘ylarning moniezioz bilan zararlanish darajasi va qo‘ylarda monieziozga qarshi antgelmintiklarni qo‘llash batafsil yoritildi.

Kalit so‘zlar: Anoplotsefalyatoz, Moniezioz, Moniezia expansa, Moniezia benedeni. Albendazol poroshogi 20%, Monezin suspenziyasi.

KIRISH

Respublikamizda chorvachilik sohasining asosiy tarmoqlaridan biri bu qo‘ychilik va echkichilik bo‘lib, aholini sifatli go‘sht, sut hamda yog‘ mahsulotlari bilan, sanoatni esa xom-ashyo sifatida teri mahsulotlari bilan ta’minlaydi. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarda chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish, ularni mahsulorligini oshirish, turli yuqumli, yuqumsiz va invzion kasalliklarga qarshi kurashish va oldini olish choralarini rejali ravishda olib borishdir. Bu sohani rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi qator omillar ham mavjud. Bulardan qishloq xo‘jalik hayvonlari orasida uchrab turadigan ayrim gelmintozlarning tarqalishi va keltiradigan iqtisodiy zarari bo‘yicha muhim o‘rin egallaydi. Respublikamizda ushbu kasalliklarni tarqalishini, epizootologik holatini va ularga qarshi kurashish choralarini izlab topishni talab etadi. Ushbu kasalliklarga mayda shoxli hayvonlardan moniezini misol keltirish mumkin.

Mavzuning dolzarbliligi. Mayda shoxli hayvonlarda uchraydigan moniezioz chorvachilikda katta iqtisodiy zarar yetkazib kelayotgan sestodoz kasalliklaridan bo‘lib hisoblanadi. Fanda Moniezia avlodining 15 ga yaqin turi ma’lum. Ularning ko‘plab turlari yovvoyi o‘txo‘r kavshovchi sut emizuvchi hayvonlarda topilgan. O‘zbekistonda ushbu kasalliklarga moniezia avlodiga mansub moniezia expansa, moniezia benedeni va moniezia autumnialalarni misol keltirish mumkin. Bu kasalliklar bir muncha keng tarqaganligi va ular oqibatida o‘lim holatlari kuzatilib kelinmoqda. Yuqoridagilardan

ko‘rinib turibdiki, mayda shoxli hayvonlar moniezioz qo‘zg‘atuvchilarini, ularni bir biridan farq qiluvchi diagnostik belgilarini aniqlash, ularga qarshi kurashish usullarini takomillashtirish o‘ta muhim hisoblanadi.

Materialarni takshirish uslublari. Kasal hayvonning orqa chiqaruv teshigi (anus) atrofi ifloslanib, to‘yimli ozuqalar berilishiga qaramasdan ozib ketadi, o‘sishdan qoladi. Ko‘pincha ko‘krak, qorin bo‘limlarida shishlar paydo bo‘ladi. Junlari yaltiroqligini yo‘qotib, mo‘rt bo‘lib qoladi va sinib, to‘kilib ketadi.

M.expanza bilan zararlanib kasallangan qo‘ylarda xastalikning to‘rt xil klinik shakli og‘ir va engil zaxarli, ichakning bekilib qolishi (obturations) hamda asabiy ko‘rinishlari bilan farqlanadi. Og‘ir zaxarli belgili ko‘rinishda asosan qo‘zilar kasallanadi.

Hayvon tezagida monieziyning yetuk bo‘g‘inlari ko‘rinishdan 10-15 kun avval kasal mollarda loxaslanish, lanjlik, oriqlash, ishtaxasizlanish (ayrimlarida aksincha) belgilari namayon bo‘ladi. Bu holatda tezak suyuqlashib, shilliq bilan qoplangan bo‘ladi. 10-15 kun vaqt o‘tishi bilan esa klinik belgilari yanada yorqin ifodalanib, qo‘zilarning ichi o‘tadi, kuchsizlanib uzoq yotadi. Ularning tezagi suyuqlashib, qoramfir er rangida bo‘ladi va shilliq, qon aralash ajralib, tanasining orqa qismi dumbasining atrofida va sonining ichki yuzasini ifoslantiradi. Kasal hayvon qonsizlantirib, o‘sishdan qoladi va yurak faoliyatining yomonlashuvchi natijasida tananing pastki qismlarida shishlar paydo bo‘ladi.

Kasal hayvon qonsizlanib, o‘sishdan qoladi va yurak faoliyatining yomonlashuvi natijasida tananing pastki qismlarida shishlar paydo bo‘ladi. Natijada uloqlar may va iyun oylaridan boshlab nobud bo‘la boshlaydi.

Tadqiqot obektlari. Bizlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari Nurobod tumanidagi Xasan Zuhro tog‘chorvasi xo‘jaligida va aholining shaxsiy qo‘yida olib borildi. Jami bo‘lib 40 bosh qo‘y gelmintsizlantirildi.

Tadqiqot natijalari. Xo‘jaliklarda qo‘ylarning moniezioz kasalligining qo‘zg‘atuvchilari bilan zararlanish darajasini aniqlash maqsadida Nurobod tumanidagi Xasan Zuxro tog‘chorvasi xo‘jaligida va aholi shaxsiy qo‘ylaridan 40 boshi ajratilib, 1% mis kuporosi eritmasi bilan gelmintsizlantirildi. Qo‘ylardan chiqqan axlat (tezak) yig‘ib olinib, ketma-ket yuvish va darling usullarida tekshirildi. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval 1

Xo‘jalidagi qo‘ylarning moniezioz kasalligi bilan zararlanish darjasasi

Guruhs	Hayvon bosh soni	Ketma-ket yuvish usulida tekshirilganda	
		moniezioz	%
1-guruhs	20	4	20
2-guruhs	20	3	15

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Nurobod tumanidagi □Xasan Zuxro tog‘chorvasi□ xo‘jaligida 20 bosh qo‘y gelmintsizlantirilganda 4 boshida moniezioz kasalligi qo‘zg‘atuvchilari topilib, kasallik bilan zararlanish darjasи 20 % ni tashkil qildi. Aholi qo‘ylarning 20 boshi tekshirilganda 3 boshida moniezioz kasalligini qo‘zg‘atuvchilari va tuxumlari topilib zararlanish darjasи 15% ni tashkil etdi.

Qo‘ylarning moniezioz kasalliklarida antgelmintiklarni samaradorligini aniqlash maqsadida qo‘ylardan tezak namunalari olinib, ketma-ket yuvish va darling usullari yordamida tekshirilib, tabiiy zararlangan 20 bosh qo‘y ajratib olinib, analog qoidaliga asoslanib 2 guruhga 10 boshdan bo‘lindi. Ularga antigelmintik dorilaridan monezol suspenziysi va albendazol poroshogi hayvonning tirik vazniga qarab dorini og‘iz orqali va oziqasiga qo‘shib berildi. Qo‘ylar jami bo‘lib 2 ta guruhga ajratilib, ularga dori och qoringa ertalab ichirildi. Tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval 2

Qo‘ylarning moniezioz kasalliklarida antgelmintiklarni samaradorligi

Guruh-lar	Hayvon bosh soni	Dori nomi	Qo‘llanilish dozasi	Dorining gelmint larga ta’siri	Dorining samarador ligi foizda
1-guruh	10	Albendazol poroshogi 20%	15 mg/kg miqdorida	7 bosh qo‘yda monieziya qo‘zg‘atuvchilarining bo‘g‘inlari va tuxumlari topilmadi	70 %
2-guruh	10	Monezin suspenziysi	10 kg tana og‘irligiga 1ml miqdorida	Monieziya qo‘zg‘atuvchilarining bo‘g‘inlari va tuxumlari topilmadi	100 %

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki. Tekshiruv natijalari 48 soatdan keyin aniqlanganda, 1 guruhlardagi qo‘ylarning axlati (tezagi) alohida ajratilib, flyuborn va darling usullarida tekshirilganda moniezioz bo‘g‘inlari 3 bosh qo‘yda borligi tekshirilib aniqlandi va dorining antgelmint samaradorligi 70 foizni tashkil etdi.

Ikkinci guruhdagi 10 bosh sestodozlar bilan zararlangan qo‘ylarga Rossiyada ishlab chiqilgan monezin suspenziyasidan 10 kg tirik vazniga 1 ml dan ichirilgan qo‘ylarda sestodlarning parchalanib tushishi, har bir qo‘ylarda takrorlandi. Bir sutka o‘tgandan so‘ng tajribadagi qo‘ylarga xalta bog‘lanib tezak namunalari yig‘ib olindi va gelmintokoprologik tekshiruv usullaridan ketmat-ket yuvish va fyulleborn usullaridan tekshiruvdan o‘tkazilganda monieziya bo‘g‘inlari topilmadi va angelmintikning samaradorligi 100 foizni tashkil etdi.

XULOSA

Nurobod tumanidagi □Xasan Zuxro tog‘chorvasi□ xo‘jaligida va aholi shaxsiy qo‘ylariga, antgelmintik dori vositalaridan Rossiyyada ishlab chiqilgan monezin preparati echkilarning moniezioziga qarshi qo‘llanilganida 100 foiz samara berishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. B.Salimov., T.Tayloqov., SH.Qurbanov Qo‘ylarning ichak sestodozlari qo‘zg‘atuvchilari to‘g‘risida ba’zi yangi ma’lumotlar. // □Hayvonlar va parrandalarda o‘ta xavfli kasalliklarning tarqalishi va ularga qarshi kurashish choralarini mavzusidagi beshinchi xalqaro konferensiya ma’ruzalari materillari to‘plami. VITI, Samarqand, 2016. 362-365 b.
2. B.Salimov., Tayloqov., Qurbonov SH. Avitellinoz qo‘zg‘atuvchilari. // “Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishning natijalari hamda istiqboldagi vazifalar□. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy maqolalar to‘plami. Samarqand 2017.
3. Taylakov T.I. Echkilarning anoplotsefalyatozlariga qarshi yangi ant-gelmintiklarning samaradorligini o‘rganish. Qishloq xo‘jaligida ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi□. //Professor-o‘qituvchilar va yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasining maqolalar to‘plami. Samarqand, 2018. 21-23 b.
4. A.O.Oripov, N.E.Yuldashev, SH.A.Djabbarov. Gelmintozlarga qarshi kurashishning zamonaviy uslub va vositalari boyicha amaliy tavsiyalar. // Veterinariya meditsinası jurnalı. Toshkent-2021.№3.B.27-28
5. Салимов, Б. С., Тайлаков, Т. И., & Худоярова, С. Н. (2013). РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЦЕСТОД, ПРИНАДЛЕЖАЩИХ К РОДУ MONIEZIA BLANCHARD В 1891 В УЗБЕКИСТАНЕ. *Ветеринарна біомехнологія*, (22), 526-539.